

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI**

**2024-yil 16-aprel**

**Toshkent – 2024**

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

#### **Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**G.Norimova** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

#### **Tahrir hay'ati:**

**S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,**

**O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova**

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

## SOLIQ SOHASIGA OID NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARIDAGI LINGVISTIK MUAMMOLAR

Azoda Beysenova<sup>1</sup>

Ilmiy rahbar: Xurshida Kadirova<sup>2</sup>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada lingvistik ekspertizaning huquqiy asoslari, normativ-huquqiy hujjatlarning, xususan, soliq sohasiga oid ichki hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazishning muhimligi asoslab berilgan. Soliq sohasiga oid hujjatdagi xatolar sanab o'tilgan va bu bilan soliq sohasi rus guruhi talabalariga o'zbek tili fanida hujjatlar bilan ishlashning muhimligi aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** *Normativ-huquqiy hujjat, lingvistik ekspertiza, lug'at, uslubiy xato, orfografik xato, termin, grammatika.*

**Annotation.** This article explains the legal basis of linguistic expertise, the importance of linguistic expertise of normative legal documents, in particular, internal documents related to the tax field. Errors in the document related to the tax field were listed, and with this, the importance of working with documents in the Uzbek language was mentioned to the students of the Russian group of the tax field.

**Key words.** Regulatory-legal document, linguistic experience, dictionary, stylistic error, spelling error, term, grammar.

2020-yil 24-noyabrda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida "normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir" [7] deb ta'rif berilgan. Ushbu qonunda normativ-huquqiy hujjatga qo'yiladigan talablar belgilab qo'yilgan.

Har qanday turdagi hujjat qisqa, lo'nda, aniq va hamma tushunarli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Zero, bu hujjatdan nafaqat ushbu soha xodimlari, balki oddiy xalq ham foydalanishi mumkin. Hujjatlardagi sinonim so'zlardan foydalanish va har xil vaziyatlarda ushbu sinonimik qatordagi har xil so'zlar ishlatilishi oqibatida, ba'zi savolli va dolzarb vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish davr talabiga aylanib ulgurdi. Bu o'z navbatida iqtisodiyot sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. Xususan, soliq sohasi hujjatlari ham ba'zi o'rinlarda lingvistik ekspertizaga muhtojlik

---

<sup>1</sup> Azoda Beysenova – *ToshDO'TAU O'zga tilli guruhlarida o'zbek tili yo'nalishi magistranti*

<sup>2</sup> Xurshida Kadirova – *ToshDO'TAU O'zga tilli guruhlarida o'zbek tili kafedrasida dotsenti, f.f.n.*

**Iqtibos uchun:** Beysenova, A. Kadirova, X. (2024) Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 96-101 b.  
DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/KCRV2728

sezayotgani ko'rinib qoldi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti keskin rivojlanib borishi bilan bir qatorda, muqim ham emas. Ushbu faol va o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti davrida har bir soliq to'lovchi uchun tushunarli bo'lgan sohaga oid hujjatlarni ishlab chiqish juda muhim. Jismoniy va yuridik shaxslarda paydo bo'ladigan soliqqa oid savollar, sud jarayonlaridagi bahsli holatlar ham lingvistik ekspertiza orqali o'z yechimini topadi.

Vazirlar Mahkamasining Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomida lingvistik ekspertiza o'tkazishning muhimligi va o'tkazish tartibi sanab o'tilgan.

Har qanday hujjat davlat tili qoidalari asosida tayyorlanishi, rasmiylashtirilishi kerak. Hujjatning davlat tili talablariga javob berish-bermasligini tekshirish lingvistik ekspertiza deb nomlanadi.

"Lingvistik ekspertizaning maqsadi va asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnini davlat tili qoida va talablariga moslash, yangi atamalarni to'g'ri qo'llash hamda grammatika, imlo, punktuatsiya qoidalariga muvofiq bo'lishini ta'minlash;

- normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnining davlat tili qoida va talablariga, jumladan, imlo, uslubiy, Grammatik va orfografiya qoidalariga mos bo'lishini ta'minlash;

- normativ-huquqiy hujjat loyihasida soha atamalarining to'g'ri qo'llanishi, yangi atamalar qo'llanganda, ularga mos ta'rif berilishini tekshirish;

- normativ-huquqiy hujjat loyihasi matni aniq va tushunarli bayon qilinganligi, so'z birikmalari to'g'ri tanlanganligiga va o'zaro to'g'ri bog'langanligiga baho berish;

- normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnidagi tushuncha va atamalarining ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlash." [1,26]. Yuqorida keltirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, har qanday hujjat matnida leksik, punktuatsion, orfografik, sintaktik va mantiqiy xatoliklarning bo'lmasligi kerakligi ko'zda tutiladi. 1995-yida qabul qilingan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qaror orfografiya va punktuatsiyaning, o'zbek tilining sinonimlar kitobi umumiste'moldagi so'zlarni tanlashda, o'zbek tilining izohli lug'ati va sohalarga oid lug'atlar esa matnning mantiqiy uzviyligi asosini tekshirishda asos hisoblanadi.

Hujjatlar xatosiz yozilishi kerak, ularda arzi mas yoki kichik xatoga o'rin yo'q. Bu nafaqat huquq sohasiga oid, balki har qanday hujjatga tegishli. Hujjatda xato qo'llangan so'z yoki belgi jumlaning ma'nosini butkul o'zgartirib yuborishi yoki g'alizlik keltirib chiqarishi mumkin. Ishimizning obykti sifatida "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori[5]ni oldik. Normativ-huquqiy hujjatlarni lingvistik jihatdan 2ga bo'lib tahlil qilish mumkin va bular:

stilistik va grammatik. Quyida ushbu qarorda yo'l qo'yilgan bir nechta grammatik va uslubiy xatolarni tahlil qilamiz.

**Uslubiy xatolar** sifatida so'zlarning xato ishlatilishini keltirish mumkin. "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarorning bir nechta bandini ko'rib chiqamiz: *Sayyor soliq tekshiruvi — soliq organlari tomonidan soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash sohasida soliq to'lovchilarning ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruv bo'lib, unda hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag'lari harakatining, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa axborotning tahlili o'tkaziladi* (9-bet). Ushbu gapda bir nechta uslubiy xatoliklarni ko'rishimiz mumkin: "soliqlarni hisoblab chiqarish" jumlasida uslubiy jihatdan to'g'ri emas va ushbu jumla nizomning bir qancha joyida takrorlangan. O'zbek tilining izohli lug'atida "ishlab chiqarish" birikmasiga "muayyan ijtimoiy munosabatlar sharoitida kishi mehnati tufayli jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklarni yaratish jarayoni", [3, 964] deb ta'rif berilgan. Ushbu jumla o'rniga "soliqlarni ishlab chiqish" deb berilishi to'g'ri hisoblanadi. Izohli lug'atda "ishlab chiqish" birikmasiga: "tayyorlamoq, yaratmoq" deya ta'rif berilgan. Nizomdagi boshqa o'rinlarda "mahsulot ishlab chiqarish" [5] jumlasida berilgan. Mahsulot ishlab chiqariladi lekin, soliqlar hisoblab chiqiladi.

"To'lash sohasida soliq to'lovchilarning ayrim majburiyatlarini..." jumlasidagi "soha" so'zi o'rnida "bo'yicha" so'zi qo'llanilsa, yoki "to'lash sohasi" birikmasi olib tashlansa ham ma'no saqlanib qolar edi.

Yuqoridagi bandedagi "tovar-moddiy qimmatliklar" birikmasi ham noto'g'ri ishlatilgan. "Tovar-moddiy boylik" termini iqtisodiyotda ishlatiladi, lekin "qimmatlik" deb ishlatilmaydi. Qimmatlik so'zi hattoki, O'TILda ham mavjud emas. Agar bu so'z qimmatli qog'oz ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, "Tovar moddiy boyliklarini olishga ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo'yicha berish tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqidagi Moliya vazirining buyrug'ida "Tovar-moddiy qiymatliklar" kabi ishlatiladi[6].

Ushbu nizomda keltirilgan "*Xolislar kamida ikki nafar kishi miqdorida jalb etiladi*" bandida "nafar, kishi" va bu so'zlardan keyin "miqdorida" so'zining berilishi tавтоlogiyani yuzga chiqarib, g'alizlik paydo qilgan. "Nafar" va "kishi" so'zlari insonlar uchun ishlatiladigan dona sonlardir, lekin "ikki kishi jalb etiladi" deyilsa ham ma'no o'zgarmaydi, balki aniqroq va tushunarliroq bo'ladi.

"*Soliq to'lovchilar zarur hollarda soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq organlariga soliq xavfi darajasi mezonlari bo'yicha tushuntirishlar yuborishga haqli*". Biror so'zning ishlatilish o'rinlari aniq bilish uchun biz lug'atlarga murojaat qilamiz, lekin yuqoridagi jumlada berilgan "shaxsiy kabinet" birikmasi O'TILda berilmagan. "Kabinet" so'zini ko'pchilik xona, ish xona, ofis ma'nolarida tushunadiva O'TILda ham shunday beriladi[3]. Lekin bu yerda biror

shaxsning internetdagi shaxsiy sahifalari anglashilgan. Hujjatlarda O'TILda berilmagan so'zlar izohi berilishi kerak. Va bu o'z navbatida, O'TILning soha mutahassislari tomonidan to'ldirilib borilishini ta'minlaydi. Yuqorida keltirilgan nizomda *kartochka* (4-bet), *bankrot* (5-bet), *shaxsiy kabineti* (7-bet), *videokamera* (8-bet), *kameral* (12-bet), *nazorat-kassa* (24-bet), *markirovka* (31-bet), *marksheyderlik* (32-bet), *QR-kod* (36-bet) va boshqa so'zlar O'TILda mavjud emas. Ularning ba'zilar O'zbek tilining imlo lug'atida ham mavjud emas.

Nizomda *"tekshiruvni o'tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga tekshiruv bilan bog'liq, shu jumladan, elektron axborot jismlarida saqlanadigan, hujjatlar va axborotni o'rganish hamda tahlil qilish imkoniyatini ta'minlash"* bandida keltirilgan "elektron axborot jismlari" jumlasiga g'alizlikni keltirib chiqargan. Keyingi o'rinda *"soliqlarni hisoblab chiqarish bilan bog'liq hujjatlarni, buyumlarni va elektron axborot saqlovchi jismlarni (soliqqa oid axborotni saqlovchi moslamalar, shu jumladan, kompyuterning qattiq diski, noutbuklar va boshqalar) Soliq kodeksining 148-moddasida belgilangan tartibda olib qo'yish"* bandida "axborot saqlovchi jismlar" kabi berilib, unga izoh yozib ketilgan. "Axborot vositalari" atamasini tilimizda ishlatamiz va shu kabi berilishi to'g'ri bo'ladi.

Nizomda ba'zi terminlar ham xato qo'llangan: "hisobvara-q-faktura" va "pul harakati". "Hisobvara-q-faktura" atamasining O'TILda yo'qligi hisobidan, leksografik muammosi hal qilinishi o'rinli. O'TILda "Hisobvara-q" so'zi ta'riflangan, xolos. Lekin, moliyachilar o'rtasida bu atama "hisob-faktura" kabi ishlatiladi va soliq qo'mitasining saytida ham shunday ishlatilishini ko'rishimiz mumkin. "Pul harakati" atamasi moliya-bank terminlarining izohli lug'atida "pul aylanishi" [2,216] kabi berilgan.

Nizomda *"soliq tekshiruvini tayinlash to'g'risidagi buyruqning bir nusxasini soliq to'lovchiga taqdim etishi"* (15-bet) jumlasidagi "tayinlash" so'zi ortiqcha. Chunki buyruq nomi ham "soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risida" kabi va ushbu nizomning 2-bo'limida va qolgan bandlarda "soliq tekshiruvlarini o'tkazish" (7-bet) deb berilgan. Ushbu buyruq nusxasi berilishi to'g'risida *"Soliq auditini o'tkazish muddati soliq to'lovchiga (soliq agentiga) soliq auditini tayinlash to'g'risidagi buyruq topshirilgan kunda boshlanadi"* (40-bet) bandidan keyin *"Soliq auditini tayinlash to'g'risidagi buyruq nusxasi soliq to'lovchiga yoki uning vakiliga buyruqning ikkinchi nusxasiga uni olganligi to'g'risida imzo qo'ydirgan holda topshiriladi"* (40-bet) deyilgan. Birinchi bandda buyruqning nusxasi berilishi haqida aniqlik kiritilmagan. Va bundan buyruqning o'zi taqdim etilishi kerakligi tushunilib qolgan.

*Ko'zdan kechirish davomida suratga olish va videoyozuvlar amalga oshiriladi, hujjatlardan nusxa olinadi yoki tekshirish bilan bog'lik boshqa harakatlar amalga oshiriladi* (41-bet). O'TILda "amalga oshirmoq" – "yuzaga chiqarmoq, vujudga keltirmoq; bajarmoq, joriy qilmoq" [3,99] kabi talqin qilingan. Videoyozuvlar uchun tilimizda "tasvirga olmoq" fe'li mavjud.



*“Agar olingan ma’lumotlar asosida soliq solish obyektni va soliq solinadigan bazani aniqlash imkoniyati bo’lmagan taqdirda, soliqlar soliq hisobotini muntazam taqdim etadigan va o’xshash faoliyat bilan shug’ullanadigan soliq to’lovchilar to’g’risidagi axborot asosida hisoblab chiqariladi”*(42-bet). Ushbu bandedagi “taqdirda” so’zi shart bog’lovchisi vazifasida kelgan. Lekin band boshida “agar” so’zi ishlatilganligi sababli “taqdirda” so’zi o’rinsiz va bu so’z ko’proq badiiy uslubga xos. Hujjatlarda ko’chma ma’nodagi so’zlarni ishlatish mumkin emas. “bo’lmagan taqdirda” o’rnida “bo’lmasa” kabi ishlatlsa bo’ladi. O’zbek tili qoidalariga ko’ra, “agar ....(ma)sa” kabi ishlatiladi.

*“Foydali qazilmalarning ro’yxati va kavlab chiqarish hajmlari”* (42-bet) bandedagi “kavlab chiqarish” birikmasi o’rnida “qazib chiqarish (olish)” ishlatish o’rinli.

Har qanday hujjatda kichik bo’lsa-da xatoga o’rin yo’q, chunki, bir hujjat tasdiqlanishida bir necha o’nlab mutaxassis va ekspertlar jalb qilinadi. Yuqoridagi nizomda **orfografik** xatolarni ham uchratish mumkin.

Nizomda “vebsayt” so’zida imloviy xatoni ko’rish mumkin. Imlo lug’atida “vebsayt” [4,542] kabi beriladi, nizomda esa “veb-sayt” (7-bet) kabi berilgan.

*Soliq auditining muddatini uzaytirish soliq auditini o’tkazuvchi shaxsning iltimosnomasiga asosan amalga oshiriladi. Bunda iltimosnoma soliq auditining muddati tugashidan besh ish kun oldin berilishi kerak* (39-bet). Ushbu bandeda berilgan “besh ish kun” birikmasida grammatik xatolikka yo’l qo’yilgan. “Ish kuni” so’z birikmasidagi “-i” qo’shimchasi tegishlilikni anglatadi. “Besh ish kun” kabi berilganda ushbu tegishlilik ma’nosi yo’qolgan.

*Ko’zdan kechirish davomida suratga olish va videoyozuvlar amalga oshiriladi, hujjatlardan nusxa olinadi yoki tekshirish bilan bog’lik boshqa harakatlar amalga oshiriladi* (41-bet). Ushbu bandedagi “bog’lik” so’zining to’g’ri variant – “bog’liq” [4,142] bo’ladi.

Yuqorida berilgan va shu kabi soliq sohasiga oid hujjatlarni, albatta, soliq mutahassislari tuzadi va ushbu yaratiladigan hujjatlarda sanab o’tilgan imloviy va mantiqiy xatoliklarni bartaraf etish uchun soliq sohasi talabalarida hujjatlar bilan ishlash ko’nikmasini rivojlantirish muhim. Bunda, ulardagi mavjud grammatik va nutqiy ko’nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ilmiy uslub bilan ishlash kompetensiyalariga ham alohida e’tibor qaratish kerak.

## **ADABIYOT:**

*Beysenova, A, Kadirova, X. MASHG’ULOTLARDA O’ZBEK VA RUS TILLARIDAGI TURG’UN BIRIKMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK QIYOSIY TAHLILI // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mashg-ulotlarda-o-zbek-va-rus-tillaridagi-turg-un-birikmalarning-lingvokulturologik-qiyosiy-tahlili> (data obrasheniya: 19.05.2024).*

*Бейсенова, А., & Хуршид, Х. (2022). “Zamonamiz qahramoni” asarida qo’llangan frazeologizmlarning badiiy tarjimada aks etishi (o’zbek va rus tillari*

- misolida). *Uzbekistan Language and Culture*, 5(1). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/4>
- Ko'chimov Sh.* Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish. Metodik qo'llanma. – Toshkent: Ozbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022, 26-b.
- Кади́рова, Х.* 2024. Методы перевода дисфемизмов в художественном переводе узбекского и русского языков. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 2, 2 (мар. 2024), 100–113. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2-pp100-113>.
- Muhamedova S., Shirinova Y., Xudoyberdiyeva S.* Bank-moliya terminlarining o'zbek tilidagi izohli lug'ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2022. –B. 216.
- Manzur R., Kadirova X. B.* O 'ZBEK TILI DARSLARIDA 9-SINFLARDA "ME'MORIY OBIDALAR" MAVZUSINI O 'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH //Research and Publications. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 57-63.
- Худайбердиева И., Кади́рова Х.* (2022). ТРУДНОСТИ В РАЗЛИЧИИ ПАДЕГОРОВ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ. *Перспективы узбекской прикладной филологии*, 1 (1). Получено с <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences3/article/view/277>.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. Madaliyev A., Xudayberganova D., - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. –B. 964.
- O'zbek tilining katta imlo lug'ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. –B. 648.
- <https://lex.uz/docs/-5206072>
- <https://lex.uz/ru/docs/-841978>
- <https://lex.uz/docs/-5378966>



## MUNDARIJA:

1	<b>Muhamedova S. Shirinova Y.</b> Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	<b>Kadirova X.B.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	<b>Iskandarova G.T.</b> O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	<b>Musulmanova N.</b> Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	<b>Isayeva Sh.</b> Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	<b>Do'smuradova Y.</b> Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	<b>Turakulova O.A.</b> O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	<b>Məmmədov X. Kadirova X.</b> X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	<b>Elova D.Q.</b> O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	<b>Abdulkhaimova O.</b> O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	<b>Xo'jayev N.</b> O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	<b>Aytniyazova N.</b> O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	<b>Nasirdinova O.</b> Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	<b>Khidoyatova D.A.</b> Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	<b>Davronov A.S.</b> O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	<b>Аликулова М.</b> Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	<b>Bazarova D.B.</b> Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	<b>Yo'ldosheva Y.A.</b> Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	<b>Beysenova A. Kadirova X.</b> Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	<b>Pardayeva M.Ch.</b> Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	<b>Shodmanov T.A.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	<b>Abduqodirova N.</b> Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112